



AHOLI QARISHINING IQTISODIY OQIBATLARI

Mamajonova Mohlaroyim Iqboljon qizi

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

Aholining keksayishi bugungi kunda rivojlangan dunyo davlatlarining barchasiga xos bo'lgan va kuzatilayotgan demografik jarayondir. Kishilik jamiyatining rivojlanishida ushbu hodisa ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuda o'rganar ekanmiz, avvalo, qarilik so'ziga ta'rif berib o'tishimiz joiz hisoblanadi.

Qarilik – bioijtimoiy hodisa bo'lib, inson organizmining yoshga bog'liq muayyan bir davri, muqarrar ravishda yuz beradigan jarayon. A'zo va sistemalarda o'ziga xos o'zgarishlar ro'y beradi. Insonlarning qarilik davri odatda 75 yoshdan keyin boshlanadi va 90 yoshdan oshgan kishilar uzoq umr ko'ruvchilarga kiradi. Demografik qarish jarayonining boshlang'ich xususiyatlari to'g'risidagi fikrlar XIX-XX asrlardayoq paydo bo'la boshlagan. A.Ya. Boyarskiy, Burjua-Pish, I.V. Kalinyuk kabi bir qator iqtisodchi olimlarning olib borgan ilmiy ishlari va tadqiqotlariga ko'ra, demografik qarish aholining umumiy salmog'ida keksalar sonining yuqori foizlarda ko'rsatkich berishi bilan bog'liq jarayon deb topilgan.

Taniqli fransuz demograf olimi A. Sovi fanga “Qarish indeksi” atamasini kiritadi va aholining keksayish jarayonini baholashda oson uslub sifatida tavsiya etadi. Olim qarish indeksini mehnatga layoqatli (bolalar) yoshgacha bo'lgan qatlamdan yuqori yoshdagi ya'ni mehnatga layoqatsiz (qariyalar) yoshgacha bo'lgan aholi qatlamining foizlardagi nisbiy ko'rsatkichlari orqali aholining keksayish darajasini baholash mezonini sifatida talqin qiladi va ushbu mezon ko'pchilik mamlakatlarda o'z tasdig'ini topib kelmoqda. Uning fikriga ko'ra aholining keksayish darajasi mezonini uch asosiy bosqichga bo'linadi va quyidagicha izohlanadi:

1. Aholi qarish indeksi 20% dan kam bo'lgan holat hisoblanadi va bu ko'rsatkich aholi qarish darajasi past ekanini izohlaydi;
2. Qarish indeksi 20-30% atrofida bo'lsa, qarish darajasi o'rta, ya'ni normal deb belgilanadi;
3. Indeks ko'rsatkichi 30% dan ortib ketse, ushbu hodisa demografik qarishning yuqori darajasi deb belgilanadi.

Aynan bir hududning demografik qarish jarayonining darajasini baholashda belgilangan yosh chegarasidan yuqori bo'lgan aholi qatlamining sonidan foydalaniladi.

Bundan tashqari fransuz demograf olimlari Jaklyn Bojyo-Garne va E.Roset demografik qarishni 4-bosqichini ko'rsatib o'tadilar va ularning fikriga ko'ra, ma'lum bir hudud aholisi tarkibida qariyalar miqdori 8% dan kam bo'lsa, shu hudud aholisi demografik jihatdan olib qaralganda yosh hisoblanadi. Agarda, bu ko'rsatkich 12% dan yuqori bo'lsa, bu hudud aholisi demografik qari deb topiladi. Hozirgi kunda bu holat iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kuzatilmoqda. Jumladan:

Germaniya – 24%, Fransiya – 23,7%, Buyuk Britaniya – 20,3%



Aholining keksayish jarayoni bugungi kunda quyidan va yuqoridan keksayish kabi qismlarga ham ajratib belgilanadi.

1. Quyidan keksayish – tug'ilishning kamayib ketishi natijasida aholi sonida bolalar ulushining keskin pasayib ketishi. Oqibatda esa qariyalar salmog'ining bolalar foizidan ortib ketishi kuzatiladi.

2. Yuqoridan qarish – tug'ilishning kamayish sharoitida keksa yoshdagi aholi qatlami orasida o'lim darajasini qisqarishi, hayot davomiyligini uzayishi hisobiga esa qariyalar soninig ortib borishi.

Aholi orasida qarishning o'sishi tug'ilishning kamayishiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan olib qaralganda, qariyalarning ko'payishi ishchi kuchining kamayishi, ichki ishchi kuchi kamaygani hisobiga tashqaridan ishchi kuch jalb qilishga ehtiyoj tug'iladi va bu ichki ishchi kuchiga to'lanadigan moddiy mablag'dan ko'ra yuqoriroq xarajatni keltirib chiqaradi. Oxir-oqibat davlat budjeti zarar ko'rishni boshlaydi, ayrim hollarda esa davlatning tashqi qarzlari ortib ketish darajasigacha yetishi ham mumkin. Budget puli kamaygani va tashqi qarzlari hisobiga aholiga beriladigan ijtimoiy imtiyozlar kamayadi, soliqlar ortadi, tovarlar va xizmatlar narxi oshadi. Bu esa bora-bora aholi turmush darajasining pasayishiga olib keladi.

Shunday ekan, iqtisodiy o'sish, rivojlanish aholining demografik yoshiga va mehnatga layoqatlilik darajasiga chambarchas bog'liq hisoblanadi. Sababi shundaki, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi yosh qatlami ham jismonan, hamda ma'nan layoqatli deb topiladigan o'rta qatlam deb belgilanadi. Qaysi hududda qariyalar va bolalar salmog'iga nisbatan yosh qatlam ulushi ko'proq bo'lsa, o'sha joyda iqtisodiy jihatdan ilgirilash hisobiga ijtimoiy hayot darajasi ham yuqori bo'ladi.

Aholining keksayish jarayonining rivojlanishi quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi:

- aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi;
- pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiyalar to'lash xarajatlarining benihoya og'ir yuki tushadi;
- qariyalarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag' sarflash, geriatric muassasalar tarmog'ini kengaytirish va butun sog'liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi;
- ishlashni istovchi "yosh qariyalar" ni ish bilan ta'minlash;
- moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining tuzilmasiga ta'sir qiladi, ya'ni qariyalarning ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, aholining keksayishi sharoitida qariyalarning turmush farovonligini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini yaxshilash: Bu uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, pensiya to'lovlarining o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishiga kafolat beradi hamda pensiya tizimining ishonchliligini oshiradi. Bu o'z navbatida qariyalarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yaxshilaydi.



2. Nodavlat jamg'armalar tomonidan manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasining kuchayishi: Bu qariyalar uchun zarur bo'lgan yordamning aniq va o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydi. Nodavlat tashkilotlarning jalb qilinishi esa, davlatning resurslarini samaraliroq ishlatish imkonini beradi va xizmatlarning sifatini yaxshilashga yordam beradi.

3. Geriatrik markazlar tarmog'ining kengayishi va tibbiy xizmat sifatining yaxshilanishi: Bu qariyalar uchun sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatini oshiradi, ularning sog'lig'ini saqlash va kasalliklarni oldini olishga yordam beradi. Gerontologik va geriatriya yordami mutaxassislar tomonidan ko'rsatilishi esa, qariyalarni davolashning samaradorligini oshiradi.

4. Kadrlar tayyorlashning yo'lga qo'yilishi ("Gerontologiya", "Geriatriya" ixtisosliklarini joriy etish): Bu sohada malakali mutaxassislarning sonini ko'paytiradi, ular qariyalarni davolash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatishda yuqori sifatli xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin. Bu esa qariyalarni qo'llab-quvvatlash tizimining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

5. Mahallalarda qariyalar uchun kunduzgi muloqot va hordiq chiqarish joylarining yaratilishi: Bu qariyalarning ijtimoiy hayotga faol jalb qilinishini, ularning yolg'izlik hissiyatini kamaytirishga, ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ularning umr ko'rish sifatini oshiradi.

6. Yolg'iz keksalarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasining oshirilishi: Bu ularga uy sharoitida zarur yordamni olish imkonini beradi, ularning mustaqilligini saqlab qolishga va muassasalarga joylashish ehtiyojini kamaytirishga yordam beradi. Bu odamlarning hayot sifatini yaxshilashga va ularning o'z-o'ziga bo'lgan hurmatini saqlab qolishga yordam beradi.

Umuman olganda, bu takliflar qariyalarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan yaxshilashga, ularning hayot sifatini oshirishga, ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Bu esa, demografik o'zgarishlarga moslashish va keksayayotgan aholini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qariyalarning ijtimoiy holatini yaxshilash orqali jamiyat farovonligini oshirish iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. O'rtacha yosh, umr ko'rish davomiyligi hamda aholi turmush darajasi yuqori bo'lgan hududda iqtisodiy jihatdan o'sish ham osonroq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduramanov X.X. "O'zbekistonda aholining keksayish jarayoni va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini". Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot – 51-60. Toshkent-2023.
2. Медков В.М. Демография (-Москва: Инфр, 2008. - С.132)
3. Калинин И.В. Возрастная структура населения СССР. (-Москва: Статистика, 1975. -С. 14)
4. www.wikipedia.uz



NYU

Topical Issues of Science Topical Issues of Science Topical Issues of Science Topical Issues of Science Topical Issues of Science Topical Issues of Science Topical Issues of Science Topical Issues of Science Topical Issues of Science Topical Issues of Science

TOPICAL ISSUES OF SCIENCE